

**«Vatan himoyachilari kuni» bayramiga
bag'ishlangan tantanali yig'ilishda viloyat hokimi
O.Ashurmatovning
TABRIK NUTQI**

2016 yil 14 yanvar

Guliston shahri

**Assalomu-alaykum Qadrli yurtdoshlar !
Hurmatli askar va ofitserlar,
Vatan himoyachilari!**

Bugun xalqimiz, davlatimiz ona yurtimiz hayotidagi g'oyat muhim va qutlug' voqea – Vatan Himoyachilari kuni va Qurolli Kuchlarimiz tashkil etilganining 24 yilligi mamlakatimizda tantanali ravishda bayram qilinmoqda.

Ana shu qutlug' ayyom bilan Sizlarni va o'z hayotini ona Vatanni himoya qilishdek muqaddas va olijanob ishga bag'ishlagan barcha yurtdoshlarimizni **samimiy tabriklayman!**

Davlatimiz va xalqimiz hayotida tom ma'noda tarixiy sana bo'lgan ushbu ayyom haqida gapirar ekanmiz, biz **MUSTAQILLIK VA TINChLIK** degan bebaho boyligimizni shukronaligi xalqimiz

qalbidan kun sayin chuqurroq o'rin olib borayotgani va ayniqsa bu tinchlik ne'matini o'z hayotida, farzandlari kamolida ko'rayotganida Milliy armiyamiz safida xizmat qilayotgan mard va jasur harbiylarimizning xizmatini yuksak baholaymiz.

14 yanvar – Vatan himoyachilari kuni qisqa davr ichida nafaqat harbiylar, balki armiyamiz safida muqaddas burchini ado etganlar va endigina xizmatga shaylanayotgan farzandlarimiz, qolaversa, barcha yurtdoshlarimizning eng aziz bayramlaridan biriga aylandi. Ushbu sananing keng miqyosda nishonlanayotgani xalqimizning el-yurt himoyachilariga bo'lgan hurmat-ehtiromidan dalolat beradi.

Hurmatli tantana qatnashchilari!

Mustaqillikning birinchi yillaridanoq O'zbekistonimizning o'z milliy armiyasini yaratish va takomillashtirishga jiddiy kirishildi.

Bu borada mustaqillik bergan imkoniyatlarni, o'tgan zamon bilan solishtirib «**KIM EDIGU KIM BO'LDIK**» degan hayotiy haqiqat bilan yondashib javob bersak maqsadga muvofiq bo'ladi.

Jumladan:

Mustaqillikkacha o'zbek yigitlari harbiy xizmatni aksariyati qurilish batalonlarida o'tashar, ularni til bilmaydi, murakkab harbiy texnikani eplay olmaydi, degan bahona bilan boshqa qo'shin turlariga xizmatga olishmas edi.

Qurilish batalonida esa ikki yil g'isht teruvchi, suvoqchi yoki bo'yoqchilik bilan xizmatni o'tab qaytar edi.

Bugun yigitlarimiz milliy armiyamizda zamonaviy texnika vositalarini boshqargan holda barcha qo'shin turlarida harbiy xizmatni o'tashmoqda.

Ilgari harbiy xizmatga yilda ikki marta chaqirilar va harbiy xizmatdan bo'shatilar edi. Natijada ilgari xizmatga borganlar bilan yangi chaqirilganlar o'rtasida ma'naviy–axloqiy muhitda nosog'lomlik vujudga kelar edi. Bu juda ko'plab noxush holatlar va fojealarga ham sabab bo'lar edi. Natijada ota-ona uchun farzandini armiyaga kuzatish xuddi urushga kuzatishdek azobli va qayg'uli edi.

O'sha davrda harbiy xizmatni o'tagan har bir kishi bu kabi misollarni o'nlab keltirishi, yoki o'zi ham bundan jabrlangan bo'lishi mumkin.

Bugun, yigitlarni harbiy xizmatga tantanali kuzatish va kutib olish mustaqillik yillarida yaxshi an'anaga aylandi. Harbiy xizmat muddati bir yilga qisqartirildi. Bu esa armiyadagi ma'naviy muhitni sog'lomlashtirishga, turli yuqoridagi kabi illatlarni barham topishiga sabab bo'ldi.

Harbiy xizmat yoshlarimizni ma'naviy va jismoniy jihatdan barkamol voyaga etkazadigan hayot maktabiga aylangani mamlakatimiz Qurolli

Kuchlari tizimida amalga oshirilayotgan islohotlarning samarasini yaqqol namoyon etmoqda.

Qurolli Kuchlarning tegishli tavsiyanomasiga ega bo'lgan muddatli harbiy xizmatni o'taganlarga oliy ta'lim muassasalariga o'qishga kirishda imtiyoz berildi.

Demak, harbiy bo'lishni istovchi yoshlar safi yil sayin kengayib, muhimi, ularning orzulari amalga oshmoqda.

Armiyaga xizmatga borish hayotda katta muvaffaqiyatlar uchun eshik ochmoqda. Armiya haqiqiy hayot maktabiga aylandi. Armiyaga kuzatish esa katta bayram, xursandchilik, oilaviy bayramga aylandi.

Yoshlar harbiy kasbga katta havas va qiziqish bilan qarashmoqda. Bu oddiy qiziqish emas, ulardagi vatanparvarlik tuyg'usining yuksakligi hamda Vatan tinchligi va daxlsizligi uchun o'zlarini mas'ul deb bilishlarining ifodasidir.

Hurmatli bayram ishtirokchilari!

Yurtimizning mard o'g'lonlari sarhadlarimizni hushyorlik bilan qo'riqlamoqdalar. Qurolli Kuchlarimizda xizmat qilayotgan askar va ofitserlar xalqimizning tinch yashashi va mehnat qilishida kechayu-kunduz tinmay xizmat qilayotgan, o'zni kelganda tinchligimiz uchun jonini ham fido etayotgan barcha huquq-tartibot idoralari xodimlarining mehnatlarini alohida ta'kidlash lozim.

Yurtboshimizning shaxsan e'tiborlari tufayli Qurolli Kuchlarimiz har tomonlama zamonaviy qurol-aslaha va harbiy anjomlar bilan ta'minlanmoqda. Harbiylarimiz eng rivojlangan chet el mamlakatlari armiyalari bilan hamkorlikda o'quv mashqlarini o'tkazmoqdalar, askar va ofitserlarimiz chet ellarga borib tajriba almashmoqdalar. Yigitlarimiz kuch g'ayratda, bilim va harbiy mahoratda hech kimdan kam emasliklarini namoyish etmoqdalar.

Aziz do'stlar !

So'zimni muhtaram Yurtboshimiz Islom Karimovning quyidagi so'zlari bilan yakunlamoqchiman: **“Vatanimiz tinchligini ko'z qorachig'idek asrash – nafaqat armiyamizning, balki barchamizning muqaddas burchimizdir!”**

Bugungi tantanada qatnashayotgan harbiy xizmatchilarni, o'z postlarida hushyor turgan harbiylarni va barcha yurtdoshlarimizni Vatani himoyachilari kuni bayrami bilan yana bir bor tabriklab, sizlarga uzoq umr, sihat salomatlik tilayman.

Yurtimiz tinch, osmonimiz musaffo,
Yurtboshimiz hamisha omon bo'lsinlar!

E'tiborlaringiz uchun rahmat!